

"KPMG" xalqaro konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda seminar o'tkazildi

// 08.08.2022

<https://uzkimyo sanoat.uz/oz/press/news/kpmg-xalqaro-konsalting-kompaniyasi-bilan-hamkorlikda-seminar>



"O'zkimyo sanoat" AJ va tarmoq korxonalari rahbarlari, ularning iqtisod va moliya bo'yicha o'rinbosarlari hamda bosh buxgalterlari uchun "KPMG" xalqaro konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda "Kompaniya ma'lumotlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq taqdim etish" mavzusida seminar o'tkazildi.

Mazkur seminar "O'zkimyo sanoat" AJ va tarmoq korxonalarining 2020-yil 31-dekabr holatiga konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotining xalqaro katta to'rtlikka (Big 4) kiradigan «KPMG» xalqaro auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkazilayotgan auditi doirasida bo'lib o'tdi.

Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad Jamiyat va tarmoq korxonalari rahbarlari, ularning iqtisod va moliya bo'yicha o'rinbosarlari hamda bosh buxgalterlarining MHXSga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlarni tushunish malakalarini shakllantirish hamda kompaniyalarning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini tahlil qilish ko'nikmalarini yanada oshirishdan iborat.

Yakunda ishtirokchilarga maxsus sertifikatlar topshirildi.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tamiz, "KPMG" dunyodagi eng yirik professional xizmatlar tarmoqlaridan biri bo'lib, katta to'rtlikka (Big 4) kiruvchi auditorlik kompaniyasi hisoblanadi. Xalqaro shtab-kvartirasi

Amstelvenda joylashgan kompaniyada 219 000 dan ortiq xodim faoliyat yuritadi.





  [uzkimyosanoat](https://t.me/uzkimyosanoat)

  [uzkimyosanoat.uz](https://www.instagram.com/uzkimyosanoat.uz)

 (+99878) 140-74-26

«Нам не следует понапрасну привлекать высшее руководство... ему достаточно просто сообщить основные принципы»

«Аудитор все сделает сам»

«Наши ИТ системы достаточно гибки... Не составит особого труда внести несколько изменений под новый бухгалтерский стандарт»

«МСФО не может сильно отличаться от того, что мы делаем сейчас»

«Не понимаю к чему такая спешка. Мы все сделаем когда придет время»

«У нас все готово, все сделано, вам много времени тратить не надо»

uzkimyosanoat uzkimyosanoat.uz (+99878) 140-74-26

uzkimyosanoat AJ MATBUOT XIZMATI





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati